

**“Dehqonobod kaly zavodi” AJ da ISO 45001 “Sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi menejmenti tizimini” joriy qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida**

“DKZ” AJning 2022-yil 23-maydagi 300-i/ch sonli buyrug‘i asosida ISO 45001 “Sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi menejmenti tizimini” joriy qilish maqsadida 55-nafar xodimdan iborat ishchi guruh tuzilgan bo‘lib 25-nafar xodim o‘qitilgan. 2024-yilning 29-yanvar sanasida tasdiqlangan “Dehqonobod kaly zavodi” AJda ISO 45001 “Sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi menejmenti tizimini” joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga asosan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar belgilab olingan. Chora-tadbirlar rejasiga asosan ISO 45001 sohasidagi tashqi va ichki omillarni aniqlandi, ISO 45001 sohasidagi manfaatdor tomonlarni aniqlandi, ISO 45001 bo‘yicha jarayonlar kartasi ishlab chiqilib birlashtirilgan boshqaruv tizimi jarayonlariga qo‘sildi. Sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi sohasidagi siyosat ishlab chiqildi, sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi maqsadlari aniqlandi, sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi sohasidagi xatarlar aniqlandi va baholandi, ularga asosan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasi bo‘yicha qo‘llaniladigan majburiy va qonuniy talablar aniqlanib ro‘yxati shakllantirildi. ISO 45001 bo‘yicha ichki auditorlar guruhi shakllantirildi va reja dastur tuzish hamda birlashtirilgan boshqaruv tizimi ichki audit rejasiga qo‘sishish ishlari amalga oshirilmoqda. Sertifikatlashtirish tashkilotini tanlash bo‘yicha texnik topshiriq ishlab chiqilib savdoga qo‘yish ishlari amalga oshirilmoqda. Ichki auditni o‘tkazish va ichki audit bo‘yicha hisobot tuzish, rahbariyat tomonidan tahlil uchun hisobot tayyorlash ishlari rejallashtirilgan.

## **2024-yila shikastlanishlarning oldini olish, xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratish**

- Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan obyektlar kadastr hujjatini ishlab chiqilishini tashkillashtirish
- Tog‘-kon majmuasi yer osti va yer ustini bog‘lovchi radioaloqa tizimini o‘rnatish.
- Tog‘-kon majmuasi yer ostida ishlovchi xodimlarni GPS bilan ta’minlash.
- Tog‘-kon majmuasiga yer osti aloqa tizimini o‘rnatish.
- Tog‘-kon majmuasi maxsus texnikalariga GPS tizimini o‘rnatish.
- Tog‘-kon majmuasida mehnatni muhofaza qilish xonasini tashkil qilish va jihozlash
- “DKZ” AJda xavfsizlik texnikasi oyligini tashkil etish va o‘tkazish
- 268 nafar xodimlarni sut va sutga tenglashtirilgan mahsulotlar bilan ta’minlanishini nazorat qilish.
- 1196 nafar xodimlarni sanitar gigiyenik vositalari bilan ta’minlash
- 447 nafar xodimlarni “Davolash proflaktik oziq-ovqatlari” bilan ta’minlash.
- Jamiyatda yangi joriy qilingan ish joylarini attestatsiyadan o‘tkazish
- TKMda yangi ochilayotgan panellarni birlamchi yong‘in o‘chirish vositalari bilan ta’minlash

<b>Manfaatdor tomonlar</b>	<b>Manfaatdor tomonlarning talablari va ehtiyojlari</b>	<b>Talablarni qondirish bo'yicha uslublar</b>	<b>Manfaatdor tomonlarning talablarini bajarmaslikni asorati</b>
Tog'-kon geologiya sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi	Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya va nohush hodisalar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olish	Foydalilaniladigan texnologik qurilmalar, mexanizmlar, asbob va uskunalarini o'z vaqtida sinovlardan o'tkazib borish hamda aniqlangan nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilib borish	Xodimlarning shikastlanishi, jarohatlanishi va baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishi
O'zbekiston Respublikasi Bandlik mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi	Mehnat jarayonida xodimlarning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlarini bajarish hamda vositalari bilan ta'minlash	Xodimlarni shaxsiy himoya vositalari, davolash proflaktika oziq-ovqatlari, sut yoki sutga tenglashtirilgan mahsulotlar va sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta'minlash, davriy tibbiy ko'riklardan o'tkazish va ularni yo'riqlardan o'tkazib borish	Xodimlarda kasb kasalligiga chalinishi, shikastlanishi, jarohatlanishi va baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishi
FVVning yong'in nazorati organi	Korxonada yong'inlar kelib chiqishining oldini olish va birlamchi o't o'chirish vositalari bilan ta'minlash	Birlamchi o't o'chirish vositalarining doimiy ishchi holatda bo'lishini ta'minlash va xodimlar orasida doimiy ravishda	Xodimlarning termik kuyishi, shikastlanishi, jarohatlanishi va baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishi

		targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borish	
--	--	--	--